

Mikroqarz to'liq qiymati: \*\*\*\*\*(\*\*\*\*\*)

## M-22/204 - sonli Mikroqarz shartnomasi

Farg'ona sh.

06.04.2022 yil

Bir tarafdin ATB "Madad Invest Bank" (bundan buyon matnda "KREDITOR" deb ataluvchi) nomidan bank Nizomiga asosan ish yurituvchi bank Boshqaruv raisi O.Yu.Ashiraliyev, ikkinchi tarafdin \*\*\*\*\* ko'chasi \*\*\*\*\*uyda yashovchi jismoniy shaxs \*\*\*\*\* (Pasport ma'lumotlari:\*\*\*\*\*n) (bundan buyon matnda "QARZDOR" deb ataluvchi) (birgalikda "TARAFLAR" deb ataluvchi), ushbu Shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

### I.ShARTNOMA PREDMETI

1.1.**KREDITOR QARZDOR**ga shartnomada nazarda tutilgan miqdorda va shartlar asosida pul summasini (mablag'larini) (bundan buyon matnda "Mikroqarz" deb yuritiladi) berish, **QARZDOR** esa olingan qarz summasini qaytarish va uning uchun foiz to'lash majburiyatini oladi.

### II.ShARTNOMA ShARTLARI

- 2.1. Mikroqarz summasi: 000 000 ( \*\*\*\*\*million) so'm.
- 2.2. Mikroqarzdin foydalanish muddati: shartnoma imzolangan kundan boshlab muddatini uzaytirish xuquqisiz 24 (Yigirma to'rt) oy.
- 2.3. Mikroqarzdning oxirgi qaytarish sanasi – 2024 yil \*\*\*\*\*.
- 2.4. Mikroqarz bo'yicha foiz stavkasi: yillik \*\*\*\*\* (\*\*\*\*\* ) foiz.
- 2.5. Muddati o'tgan qarzdorlikka nisbatan foiz stavkasi yillik: \*\*\*\*\*%. (qarzdorlik muddati o'tgan kundan boshlab).
- 2.6. Mikroqarzdning navbatdagi qismini to'lash muddati har oyning 15 sanasigacha.
- 2.7. Foizlarni to'lash muddati: har oyning 15 sanasigacha

### TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYALARI

Bankning huquqlari

3.1.1. Quyidagi hollarda, **KREDITOR** mikroqarzni barcha summasini tegishli foizlar bilan birga muddatidan oldin undirib olishi mumkin:

- a) **QARZDOR** mikroqarz yoki uning foizlari to'lovini ikki marotaba to'lash muddatini kechiktirganda;
- b) ajratilgan mikroqarz turli sabablarga ko'ra ta'minotsiz bo'lib qolganda;
- v) **QARZDOR** yolg'on ma'lumotlar yoki qalbaki hujjatlar taqdim etganda;
- g) **QARZDOR** ushbu shartnomada ko'zda tutilgan boshqa o'z majburiyatlarini bajarmaganda.

3.1.2. **QARZDOR** ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan taqdirda, **KREDITOR** mikroqarzni, uning foizlarini hamda hisoblangan neustoykani talab qilishi, hamda **QARZDOR**ning barcha mol-mulklaridan va ta'minot hisobidan undirishi mumkin.

3.1.3. **KREDITOR** ushbu shartnomada nazarda tutilmagan maqsadlar uchun mikroqarz summasini o'tkazish to'g'risidagi **QARZDOR**ning arizasini qabul qilmaydi, qabul qilingan arizalarni ijrosiz **QARZDOR**ga qaytaradi.

3.1.4. **QARZDOR** ushbu shartnomada ko'rsatilgan va/yoki mikroqarz ajratish to'g'risida kredit qo'mitasi (komissiyasi) qarorida belgilangan majburiyatlar bajarilishining ta'minotini taqdim etmaguncha **KREDITOR** ssuda hisobvaraqlar ochmasligi va mikroqarz bo'yicha pul o'tkazish to'g'risidagi arizani ijroga qabul qilmasligi, qabul qilingan arizalarni ijrosiz qaytarishi mumkin.

3.1.5. **QARZDOR** foydalanilmagan mikroqarzdandan voz kechish haqida **KREDITOR**ni ikki hafta oldin yozma ravishda xabardor etish orqali ushbu mikroqarzdandan yoki uning bir qismidan voz kechgan taqdirda, **QARZDOR** tomonidan qilingan har qanday xarajatlar **KREDITOR** tomonidan qaytarilmaydi (qoplanmaydi).

3.1.6. **KREDITOR** shartnoma bo'yicha zarur bo'lgan hujjatlarni **QARZDOR**dan so'rab olish va ushbu hujjatlar to'liq taqdim qilinmaganda qarz mablag'larini ajratishni to'xtatib turishi mumkin.

3.1.7. **QARZDOR** va unga **KAFIL** bo'layotgan jismoniy shaxslarning daromad manbalariga nisbatan shubxa uyg'onganida yoki mikroqarzni qaytarilishi muammoga aylanganida bank vakillari **QARZDOR** va unga **KAFIL** bo'lgan jismoniy shaxslarning ish joylariga borib ularning haqiqatdan o'sha yerda ishlayotganliklari to'g'risida ularning ish joyidan tasdiqlangan ma'lumotnoma olishi va monitoring o'tkazishi mumkin.

3.1.8. **QARZDOR** va unga **KAFIL** bo'layotgan jismoniy shaxslarning bank plastik kartalaridan shartnomaga asosan tulov grafiki buyicha foiz va asosiy kazdorliklar muddatida tulanmasa akseptsiz(ruxsatisiz) undirib oladi.

### 3.2. BANKNING MAJBURIYATLARI:

3.2.1. **KREDITOR** mikroqarzni ushbu shartnomada ko'rsatilgan shartlar asosida **QARZDOR**ga (naqd pul yoki naqd pulsiz shaklida) ajratadi.

3.2.2. **KREDITOR** bank tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar uchun tariflar o'zgargan taqdirda, tahrirdagi tariflarni bankning rasmiy veb sayti ([www.madadinvest.uz](http://www.madadinvest.uz))da e'lon qilib boradi.

3.2.3. **KREDITOR QARZDOR**ning talabiga ko'ra, shartnoma shartlari, to'lov jadvallari to'g'risida batafsil tushuntirib beradi.

### 3.3. QARZDORNING HUQUQLARI:

3.3.1. **QARZDOR** foydalanilmagan mikroqarzdandan voz kechish haqida **KREDITOR**ni ikki hafta oldin yozma ravishda xabardor etish orqali ushbu mikroqarzdandan yoki uning bir qismidan voz kechishga haqli.

3.3.2. **QARZDOR** ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini faqat **KREDITOR**ning yozma roziligi bilan uchinchi shaxslarga o'tkazishi mumkin.

3.3.3. **QARZDOR** qarzdorligi miqdori (asosiy qarz, foiz qarzdorligi va muddati o'tgan qarzdorliklar) haqida yozma yoki og'zaki ravishda ma'lumot olishga haqli.

3.3.4. **QARZDOR** qarzdorligini muddatidan oldin so'ndirishga haqli.

3.3.5. **QARZDOR** to'lovlarni naqd pulda, pul o'tkazish yo'li orqali yoki plastik kartochkalar orqali to'lab borish huquqiga ega.

### 3.4. QARZDORNING MAJBURIYATLARI:

3.4.1. Ushbu shartnoma bo'yicha **QARZDOR**ga ko'rsatilgan va/yoki ko'rsatilayotgan barcha bank xizmatlari uchun **QARZDOR** bank tarifida nazarda tutilgan bank xizmat haqini **KREDITOR**ga to'laydi.

3.4.2. **QARZDOR KREDITOR**ning roziligisiz mikroqarz mablag'larini olish uchun garovga taqdim etilgan mol-mulkni mikroqarz va uning foizlari to'liq to'languncha uchinchi shaxslarga garov sifatida berishga, ijaraga berishga, sotishga haqli emas.

3.4.3. **QARZDOR KREDITOR**ning oldindan roziligini olmasdan boshqa kredit tashkilotlaridan kredit va qarz olmaydi, uchinchi shaxslarning kreditorlari oldida kafil bo'lmaydi.

3.4.4. **KREDITOR** tomonidan bank xizmatlariga doir tariflar qayta tasdiqlangan taqdirda, **QARZDOR** ko'rsatiladigan bank xizmatlari uchun amaldagi yangi tarif bo'yicha xizmat haqini to'laydi.

3.4.5. **KREDITOR** tomonidan yangi tahrirdagi tariflarni bankning rasmiy veb sayti ([www.madadinvest.uz](http://www.madadinvest.uz))da e'lon qilinishi, **QARZDOR**ni bu haqda xabardor qilingan deb hisoblash uchun yetarli bo'ladi va uning shartlari **QARZDOR** uchun majburiy hisoblanadi.

3.4.6. **QARZDOR** ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlari bajarilishini ta'minoti sifatida quyidagilarni taqdim etadi:

**A) jismoniy shaxs .....ning to'liq kafilligi;**

3.4.7. **QARZDOR** tomonidan ta'minot sifatida mol-mulk taqdim etilgan taqdirda, **QARZDOR** garov ob'ektini **KREDITOR** foydasiga yong'in, zilzila, yo'l-harakat xodisasi va boshqa sug'urta xodisalaridan kredit muddatiga mos ravishda sug'urtalaydi.

3.4.8. **QARZDOR** garov ob'ektini sug'urtalaganidan so'ng sug'urta polisini **KREDITOR**ga 1 (bir) kunda taqdim etishi shart.

3.4.9. Agar **QARZDOR** ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarilishini ta'minoti sifatida taqdim qilingan omonat mablag'i aslida ushbu pul mablag'larining egasi boshqa shaxs ekanligi (FKning 228-moddasi) asosida yoki jinoyat yoxud boshqa huquqbuzarlik sodir etganlik uchun (FKning 204-moddasi) garovga qo'yuvchidan qonunda belgilangan tartibda olib qo'yilgan hollarda **QARZDOR** tomonidan o'z majburiyatini bajarilishini ta'minoti sifatida garov tariqasida 10 (o'n) bank kuni ichida boshqa mol-mulk taqdim etiladi yoki ushbu omonat summasi miqdorida mikroqarz summasi so'ndiriladi.

3.4.10. **QARZDOR** mikroqarz berilishi uchun **KREDITOR** so'ragan va/yoki ushbu shartnomada ko'rsatilgan barcha hujjatlarni **KREDITOR**ga 3 (uch) bank ish kuni davomida taqdim qiladi.

3.4.11. **QARZDOR** va/yoki ta'minot taqdim etuvchiga nisbatan huquqni muhofaza qilish organlari, nazorat qiluvchi organlar yohud sudlar tomonidan qo'llanilgan yoki qo'llanilayotgan huquqiy ta'sir choralari, iqtisodiy, moliyaviy jarimalar va iqtisodiy, moliyaviy sanksiyalar to'g'risida unga ma'lum bo'lgan kundan boshlab **KREDITOR**ga 2 (ikki) kun ichida xabar beradi.

3.4.12. **QARZDOR** ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini uchinchi shaxslarga o'tkazayotganida ta'minot qo'yuvchilarni roziligini **KREDITOR**ga taqdim etishi shart.

3.4.13. **QARZDOR** tomonidan har qanday xat-xabarlar yozma shaklda pochta orqali buyurtmali (olinganligini tasdiqlovchi) xat bilan yuborilishi kerak.

3.4.14. **QARZDOR** o'zining ish joyi, yashash joyi, familiyasi va ismi o'zgarganda va ushbu shartnomada belgilangan majburiyatlarini bajarilishiga ta'sir ko'rsatadigan boshqa holatlar to'g'risida 3 (uch) kun ichida **KREDITOR**ga xabar beradi.

#### **IV. MIKROQARZ SHARTNOMASI BO'YICHA HISOB KITOBLAR**

4.1. **QARZDOR** mikroqarzni va uning foizlarini **KREDITOR**ga ushbu shartnomaga ilova qilingan kreditni to'lash jadvalida belgilangan miqdorda va muddatda to'laydi.

4.2. Mikroqarzga foizlar uning qoldiq summasiga kunlik hisoblab boriladi.

4.3. Amalga oshirilgan to'lov eng avvalo neustoyka, so'ngra foizlarni, uning qolgan qismi esa mikroqarz summasini qoplash uchun yo'naltiriladi.

#### **V. SHARTNOMA B'YICHA MA'LUMOTLARNI NG MAHFIIYLI GI**

5.1. **QARZDOR** ushbu shartnoma bo'yicha ma'lumotlarni kredit byurolariga va garov reestriga berilishiga rozilik bildiradi.

5.2. **KREDITOR** talab qilish huquqidan uchinchi shaxslar foydasiga voz kechish maqsadida ushbu shartnoma bo'yicha barcha ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga taqdim etishi mumkin.

5.3. Ushbu shartnoma shartlari, unga qo'shimcha shartnomalar va shartnoma yuzasidan taraflar olgan boshqa ma'lumotlar maxfiy hisoblanib, oshkor etilmaydi. (qonun asosida belgilangan holatlar mustasno)

#### **VI. SHARTNOMA BO'YICHA JAVOBGARLIK**

6.1. **QARZDOR** yoki **KREDITOR** tomonidan ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarilishi kechiktirilgan taqdirda, har bir kechiktirilgan kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining **0,1** foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining **50** foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda penya to'lanadi.

6.2. Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taraf neustoykadan tashqari yetkazilgan zararni to'liq miqdorda to'laydi.

6.3. Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi natijasida yetkazilgan zararni qoplash yoki majburiyatni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun hisoblangan neustoykani to'lash majburiyatni asl holida bajarishdan ozod qilmaydi.

#### **VII. SHARTNOMANI BEKOR QILISH ASOSLARI**

7.1. **QARZDOR** shartnoma shartlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun **KREDITOR** kredit shartnomasini bekor qilishi mumkin, shu jumladan **KREDITOR** ushbu shartnomani shartnomada nazarda tutilgan quyidagi holatlarda ham bir tomonlama bekor qilishi mumkin:

a) **QARZDOR** tomonidan kredit olish uchun noaniq (qalbaki) hujjatlarni takdim etganligi yoki yolg'on ma'lumotlar taqdim etganligi aniqlanganda;

b) **QARZDOR** ushbu shartnomada nazarda tutilgan kreditni va/yoki foizlarni to'lash muddatini (ikki va undan ortiq)kechiktirgan taqdirda;

v) kreditni qaytarish turli sabablarga ko'ra ta'minlanmagan bo'lib qolganda;

g) shartnoma imzolangan kundan e'tiboran bir oy ichida mikroqarzdan foydalanmagan taqdirda.

7.2. Majburiyatlaridan voz kechish haqining miqdori, muddatlari va uni berish tartibini taraflar alohida bitim bilan belgilaydilar.

## **VIII. ShARTNOMANI BEKOR QILISH YoKI O'ZGARTIRISH TARTIBI**

8.1. Ushbu shartnomani bekor qilmoqchi yoki o'zgartirmoqchi bo'lgan taraf ikkinchi tarafga shartnomani bekor qilish yoki o'zgartirish shartlarini ko'rsatgan holda shartnomani bekor qilish to'g'risida taklif yuboradi.

8.2. Ushbu shartnomani bekor qilish yoki o'zgartirish to'g'risidagi taklif(talabnoma)ni olgan taraf, uni olgan kundan boshlab 5 (besh) kun ichida ushbu taklifni ko'rib chiqib, ikkinchi tarafga javob xati yuboradi.

8.3. Ushbu shartnomaning 8.2 bandida ko'rsatilgan muddat ichida taklifni olgan taraf ikkinchi tarafga taklif yuzasidan javob xati yubormagan taqdirda, taklif yuborgan taraf shartnomani bekor qilish yoki o'zgartirish to'g'risidagi ariza bilan sudga murojaat etishi mumkin.

8.4. Ushbu shartnomaga kiritilgan barcha o'zgartirishlar uning ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi hamda imzolangan kundan qonuniy kuchga kiradi.

## **IX. ShARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI**

9.1. Shartnoma taraflar imzolagan kundan kuchga kiradi va taraflar ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini to'liq bajargunlaricha amalda bo'ladi.

9.2. Shartnoma amal qilish muddatining tugashi taraflarni uni buzganlik uchun javobgarlikdan ozod qilmaydi.

## **X. NIZOLARNI HAL ETISH**

10.1. Ushbu shartnoma asosida va uning yuzasidan taraflar o'rtasida vujudga kelgan har qanday nizo va kelishmovchiliklar, taraflar tomonidan muzokara orqali hal etiladi.

10.2. Vujudga kelgan nizo va kelishmovchiliklarni muzokaralar yo'li bilan hal etib bo'lmaganda, taraflar ushbu nizolarni da'vogar joylashgan hududdagi sudi orqali sud tartibida hal etadilar.

## **XI. ShARTNOMANING YaKUNIY ShARTLARI**

11.1. Ushbu shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan ikki nusxada tuzilgan bo'lib, bir nusxadan taraflarda saqlanadi.

11.2. Ushbu shartnoma imzolagandan so'ng taraflar o'rtasida bo'lgan har qanday og'zaki yoki yozma kelishuvlar, bitimlar, shartnoma imzolashtan oldin bo'lgan har qanday yozishma va muzokaralar o'z yuridik kuchini yo'qotadi.

11.3. Taraflar o'z pochta manzili va rekvizitlarini o'zgarganligi (yangisi ochilganligi) to'g'risida bir-birlarini 3 (uch) kun ichida ogohlantiradilar.

11.4. Ushbu shartnomaning 11.3. bandini bajarmaslik taraflar shartnomada nazarda tutilgan xat-xabarlar va to'lovlar o'z muddatida yetib bormaganligini sabab qilib ko'rsatishdan (vaj qilishdan) mahrum qiladi.

## **XII. TARAFLARNING MANZILLARI VA REKVIZITLARI**

**BANK**

**QARZ OLUVCHI**

